



## TARJIMADA SO'Z BIRIKMALARI VA ATAMALARNING MOS KELISHI, YANGI ATAMALARNI YARATISH HAMDA ULARDAN FOYDALANISH

**Turg'unbayeva Noila Dilshod qizi**

*O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Hozirgi kunda tarjimaga e'tibor oshayotgan bir pallada, yangi atamalar va so'z birikmalari mos kelish va yaratish masalasi ham ko'p uchraydi. Ushbu maqolada tarjimada so'z birikmalar va atamlarning mos kelishini ta'minlash hamda yangi atamalar yaratish usullari va qo'llanishi haqida so'z yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *kontekst, sinonim, standartlashuv, qo'shma so'z, e-book, BMT.*

**Kirish:** Til har bir millatning tafakkurini, madaniyatini anglatadi. Shu sababli tarjimada so'z birikmalari va atamalar mos kelishi hamda o'ziga xos go'zallikni saqlashi lozim. Ayniqsa, ilmiy-texnik tarjimalar, huquqiy hujjatlar yoki badiiy asarlar tarjimasida noto'g'ri ishlatilgan so'z birikmalari va atamalar kontekstni buzishi yoki chalkashlikka olib kelishi mumkin. Shuning uchun ular mazmun va kontekstga mos kelishi, sinonimlardan to'g'ri foydalanish, tilning boyligini saqlashi lozim.

Bu jarayonda tarjimon quyidagi jihatlarga e'tibor berishi darkor

*-Mazmun va kontekstga mos kelishi:* Tarjima qilingan matn asl matn mazmunini to'liq ifodalashi kerak. Har bir atama va so'z birikmasi kontekstga mos kelishi lozim. Masalan, texnik va ilmiy matnlarda atamalar aniq, qisqa va lo'nda bo'lishi, badiiy matnlarda esa uslub va hissiy ifodalar ustunroq bo'lishi kerak. Kontekstga mos kelmagan atamalar mantnning noto'g'ri talqin qilinishiga olib kelishi mumkin.

*-Sinonimlardan to'g'ri foydalanish:* Ko'play so'zlarning bir nechta ma'nodoshlari mavjud, biroq tarjimon ularning orasidan mos keladiganini tanlashi lozim. Masalan, "Vatan" so'zini "el" yoki "yurt" degan ma'nolarda ishlatishi mumkin, ammo kontekstga qarab to'g'ri keladiganini tanlashi kerak.

*-Terminlarning standartlashuvi:* Ko'p sohalarda atamalar butun dunyo bo'ylab qo'llanadi, shu sababli xalqaro atamalarning standartlarini hisobga olish kerak. Masalan, "kompyuter" yoki "internet" xalqaro standart bo'lib qoldi. Shuning uchun ularni o'zgartirmasdan o'sha shaklda qo'llash maqsadga muvofiq.

Quyida aytib o'tiladigan yangi atamalar yaratish usullari va qo'llanilishi o'zimiz uchun qulay va tarjimada so'z birikmalari va atamalardan foydalanish oson hamda samarali. Hozir esa shu usullarning bir nechtasini ko'rib chiqamiz.

*-Qo'shma so'z yaratish:* Yangi tushunchalarni ifodalash uchun qo'shma so'zlardan foydalanish keng tarqalgan. Misol uchun, "internet" va "book" so'zlari birlashtirilsa "e-book" (onlayn kitob) atamasi yaratiladi.

*-So'zni o'zlashtirish yoki moslashtirish:* Ba'zi xalqaro so'zlarni bevosita o'zlashtirish yoki ularni milliy tilga moslashtirib qo'llash mumkin. Misol tariqasida shuni aytish joizki, "kompyuter" so'zi o'zbek tiliga "hisoblash uskunasi" deb tarjima qilinishi mumkin edi, ammo xalqaro atama sifatida ommalashgan holda ishlatilmoqda.



-*Qisqartmalar yaratish*: Ba'zi atamalar qisqartmalar tarzida ham uchraydi. Misol uchun, "BMT" (Birlashgan millatlar tashkiloti).

- *Tilning boyligini saqlash*: Yangi atamalar yaratishda o'zbek tilining mavjud imkoniyatlari, boyligi va uslubi inobatga olinishi kerak. Tilning o'ziga xosligini yo'qotmaslik va milliy o'zlikni saqlash uchun xalqona va an'anaviy so'zlarni mos ravishda qo'llash lozim. Masalan, "mobil" atamasini "qo'l telefon" deb ifodalash milliy rang va tilga yanada boylik, go'zallik qo'shadi.

- *Analogik tarjima usuli*: Bazi tushunchalarni tarjima qilish uchun o'xshashlik orqali yaqin atamalar topish ham foydali bo'lishi mumkin. Misol uchun, ingliz tilidagi "brainstorming" so'zini to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilsih o'rniga "fikrlar yomg'iri" yoki "fikrlar ustida ishlash" tarzida ifodalash mumkin.

-*Tushunishni osonlashtirish uchun izoh berish*: Agar biror murakkab yoki kam ishlatiladigan qo'llanilayotgan bo'lsa, uni tushunishni osonlashtirish uchun izoh yoki qo'shimcha tushuntirish berish foydali bo'ladi. Masalan, kompyuter timizlarida "operatsion tizim" foydalanuvchi va apparatura o'rtasida vositachi vazifasini bajaradi" kabi izoh berish atamani yaxshi tushuntiradi.

-*Professional va ilmiy yozuvlarda o'rnatilgan atamalardan foydalanish*: Har bir soha o'ziga xos terminologiyaga ega. Shu sababli, texnik yoki ilmiy yozuvlarda o'rnatilgan atama hamda so'z birikmalridan foydalanish professional yozuv uslubini saqlashga yordam beradi. Misol uchun, tibbiyot huquq va iqtisodiyot sohasida maxsus atamalar ishlatiladi va ular umumiy til bilan almashtirilmasligi kerak.

### **Yangi atamalarni tarqatish va qo'llash**

Yangi atamalarning keng qo'llanishini ta'minlash uchun ularni ommaviy axborot vositalarida, rasmiy nashrlarda va boshqa resurslarda takror- takror ishlatish zarur. Shuningdek, o'quv muassasalari va ilmiy markazlarda yangi atamalarni targ'ib qilish va ularni tanishtirish orqali kengroq ommaga yetkazish mumkin.

Shu bilan birga, yangi atamalar til me'yorlariga mos kelishi uchun lingvistik jamoatchilik tomonidan tasdiqlanishi lozim. Bu esa atamalarning tushunarli va foyalanish uchun qulay bo'lishini ta'minlaydi.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar yangi tushunchalar va atamalarni keng tarqatish uchun qulay platforma hisoblanadi. Influencerlar, mutaxassislar va tilshunoslar yangi atamlarni ijtimoiy tarmoqlarda tushuntirishi, misollar bilan qo'llashi va ommaga tanishtirishi orqali ularning keng qamroqvli qo'llanishiga erishishi mumkin.

**Xulosa**: Yangi atamalar yaratish va qo'llashda turli xildagi usullardan foydalanish tarjimonlarda ularni osonroq hamda tushunarliroq yetkazib berish imkonini yaratadi. Tarjimada so'z birikmalari va atamalar mos kelishi, yangi atamlarni yaratish va ulardan foydalanish tilni boyitishga, uni rivojlantirishga xizmat qiladi. Tarjimada so'z birikmalari, atamalardan to'g'ri foyalanish, uni ham ta'sirchanligini, ham so'z boyligini oshirishga yordam beradi. Shu sababli, tarjimonlar nafaqat til qoidalarini, balki tilning ijtimoiy va madaniy jihatlarini ham chuqur bilishi lozim. Tarjima jarayonida yangilikka intilish va milliy xususiyatlarni saqlash orqali tilni yanada boyitish va tushunarli qilish mumkin.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nurmonov, A Abdullayev, A (2010) Til va tarjima nazariyasi Toshkent: o'qituvchi – 210 b, (b 13-14).
2. Newmarket, P (1998). Textbook of Translation Prentice Hall –320 b. (p 14-15).
3. [www.gazeta.uz](http://www.gazeta.uz) Internet sayti
4. M. Sh Omonova/Tarjima nazariyasi va amaliyoti Toshkent “Zebo prints”, 2023 . - 212bet
5. [reyting.cspu.uz](http://reyting.cspu.uz) Internet sayti